



MUHAMMAD SODIQ QOSHG'ARIYNING "ODOB AS-SOLIHIN" ASARINING HOZIRGI KUNDA YOSHLAR TARBIYASIDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI

Sobirova Nafisa Yangiboy qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasi asistent o'qituvchi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10348253>

ARTICLE INFO

Received: 05th December 2023

Accepted: 10th December 2023

Online: 11th December 2023

KEY WORDS

Tarbiya jarayoni, "Odob as-solihin", tasavvuf, ta'lim tizimi, urf-odat.

ABSTRACT

Bugun turli madaniyatlar bilan aralashgan ya'ni g'ibrit holda tarbiya olayotgan yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga solish ularda chin insoniy fazilatlarni shakillantirishda o'zining ijobiy samarasini ko'rsatuvchi asar ya'ni olim Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari haqida ushbu maqolada munozaralar bayon qilinadi.

Kirish:

Hozirgi davrda jamiyati kundan-kunga rivojlanib, sayqalanib borayotgan dunyo madaniyati shuni ko'rsatadiki hech bir millat, madaniyati va ananalari, urf-odat, qadriyatlari o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Har bir millatning buguni kuni va yashash shakli uning o'tmishdagi moddiy va ma'naviy merosi bilan chambarchas bog'liq. Millatimizning ma'naviy meroslaridan biri hisoblanish olim, mutafakkir Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari bugungi kunda jamiyat uchun juda ahamiyatlidir. Ushbu asarni keng ma'noda odobnoma darsligi sifatida o'rgatish va ta'lim-tarbiya faoliyatida axloqiy manba shaklida barcha sinflarda tarbiya fani bo'lagiga aylantirish mumkinligi uning qadr-qimmatini yuksaltiribgina qolmasdan, bugungi kunda ham o'zining mazmun-mohiyatini davr va zamon talablariga mos tartibda saqlab kelmoqda. Ushbu ta'limiy va tarbiyaviy asarning nomi va mohiyatidan ham tushunish mumkinki, unda ilgari surilgan g'oyalar inson hayoti davomida muhim ro'l o'ynovchi xulq-odob qoidalari xususida insonlar, shu jumladan, yosh avlodlarga muayyan darajada ma'lumotlar berishga yordam beradi.

Biz mutafakkirning hayoti va ijodi orqali yuqori darajada tarbiyashunos bo'lganligi va olim tarafidan yaratilgan asarlarning mazmun-mohiyati haqida bilamiz. Bugungi kungacha olimning "Odob as-solihin" ("Yaxshi kishilar odobi"), "Zubdat al-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i"), "Dur al-muzoxir" ("Ko'makdoshlarning durdonasi") hamda "Tazkirai xojagon" ("Xojalar tazkirasi") kabi bir qator asarlari yetib kelgan. O'zida shaxs tarbiyasini yo'lga qo'yish muammolarini bayon qiluvchi asarlarni yaratish an'anasi mavjud bo'lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tarafidan turkiy tilda "Odob as-solihin" ("Yaxshi kishilar odobi"), "Zubdat as-masoyil" ("Masalalarning qaymog'i") kabi nodir asarlar yaratildi. "Odob as-solihin" asari besh



marotaba, 1889, 1901 yillarda Toshkent shahrida hamda 1891, 1892 va 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr qilingan¹.

Mutafakkir Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asarida ijtimoiy-madaniy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson amal qilishi lozim bo'lgan zohiriy va botiniy odob va axloq qoidalari va ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar ta'lim-tarbiyasini shakillantirishda fikr-mulohazalar yuritadi.

Ta'limiy-tarbiyaviy asarda asosiy g'oya – odamlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo'lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Mutafakkir ushbu g'oya mazmunini sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallamasa va ijobiy xulq-atvori bilan muadab va muzazzab bo'lmasa, nafaqat o'zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan fikrlarni bildiradi.

Olim ushbu ilmiy merosida suxbatlashish odobi haqida ham to'liq munozaralar yuritib, muayyan mavzularda tashkil etilayotgan suhbat (bahs-munozara)ga tanning tozaligiga erishgan, hamda, og'iz va tishlarni tozalagan holda pokiza libos ila yurish, suhbatlashuvchilarning bir-birlariga bo'lgan hurmat va iltifot ko'rsatishlariga va ulug'larga e'tiborini ko'rsatish, o'tirish qoidalariga amal qilish, suhbat ahliga kirganda va chiqqanda o'rindan turish va ulug'larni yuqoriga o'tkazish, beadab so'zlar, salbiy xatti-harakatlar hamda no'rin jimlikdan saqlanish, barchaga yaxshi muomalada bo'lish, ularni izzat qilish, aksa ursa og'zini to'sib, past ovozda, yengil aksirish, suhbat ahliga ish buyurmaslik, ularga beminnat xizmat ko'rsatish, do'st va notanishlarga bir xil ochiq chehra, go'zal xulq va odob bilan muomalada bo'lish, aka-ukalar, opa-singillarning xatosini kechirish hamda ularning aybini yuzlariga solmaslik, agar joiz bo'lsa, ularga boshqalarning e'tiboridan chetda nasihat qilish, suhbat jarayonida ishtirok etayotgan biror kishining yomon amaliga yoki fe'liga baho bermaslik² kabi lozim bo'lgan amallardan deya o'z fikrlarini ushbu asarda bayon qilgan.

Shuningdek, olimning ushbu asarida biz “mehmon kutish va mehmonga borish odobi, yo'lda yurish odobi, motam tutish odobi, uylanish odobi, erkak kishining oila oldidagi odobi, ayol kishining eriga nisbatan xurmat odobi, kasal ko'rish odobi, kiyim kiyish odoblari masalalarini bayon qilgan bo'lib, ushbu odob sifatlari o'quvchi yoshlar tarbiyasi uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Hamda, ilmiy merosda musibat odoblari haqida munozaralar yuritiladi. Mazkur qoidalaridan boxabar bo'lish, insonlar, shu qatorda yoshlar uchun ahamiyatlidir. Ayniqsa hozirda qirq kunlik motam marosimi va shu kabi bir qator marosimlar uyushtirilayotganligi sabab ko'plab oilalar va insonlar ma'naviy va moddiy zarar ko'rmoqdalar. “Inson ichki va tashqi odob qonun-qoidalarining mazmunini to'laqonli ravishda tushunib, ularga qat'iy amal qilishi lozim. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qaysi uslublar orqali xabardor bo'la oladi degan savolga javob berar ekan, olim ular yetuk mutafakkirlar tomonidan qoldirilgan qadr-qimmatli kitoblarda jam etganligi, ushbu asarlarning g'oyasi bilan tanishish orqali odob-

¹ Sobirova, N. (2023). Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning Ma'naviy-Axloqiy Tarbiyaga Oid Qarashlaridan Ta'lim Jarayonida Samarali Foydalanish Imkoniyatlari. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 144–146. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/23291>

² R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, *Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil.*



axloq qoidalari va ularga amal qilish shartlari xususida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati borligini takror bayon qilishadi"³.

Xulosa:

Asarni o'rganish va tahlil qilishdan keyingi natijalarga asoslanib, asarni ta'lim muassasalarida o'quv fanlari qatoriga kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan tarbiya, adabiyot, o'qish kabi darsliklar mazmunida ushbu asarning aks etish qadriyatlar asosida yoshlarni ijtimoyillashtirish axloqini yuksaltirishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda muallifning "Odobas-solihin" merosi yoshlar tarbiyasida balki jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan o'rganish hozirgi kunda yoshlar tarbiyasidagi tarbiyaviy ahamiyati katta va samaralidir degan xulosaga keldik.

References:

1. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.
2. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi 2010-yil
3. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2009-yil.
4. Sobirova, N. (2023). Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 144–146. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/23291>

³ Sobirova, N. (2023). Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning Ma'naviy-Axloqiy Tarbiyaga Oid Qarashlaridan Ta'lim Jarayonida Samarali Foydalanish Imkoniyatlari. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 144–146. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/23291>